NOSIR

NOYABR KUYI

She'rlar

Mas'ul muharrir:
Anvar Obidjon,
O'zbekiston xalq shoiri

Toshkent — 2010

NOSIR (Nosirjon Jo'raev) — Namangan viloyatining Namangan tumaniga qarashli Sho'rqo'rg'on qishlog'ida tug'ilgan. Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining jurnalistika fakultetini tamomlagan (2001-2007). "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" haftaligida muxbir, katta muxbir va bo'lim mudiri sifatida ishlagan (2005-2010). "Zomin" yosh ijodkorlar seminari ishtirokchisi (2001).

Ijod namunalari markaziy nashrlarda e'lon qilingan. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi tavsiyasi bilan G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyotida "Ulg'ayish kunlari" nomli kitobi chop etilgan (2008).

* * *

Izma-iz, chirpirab tushar yaproqlar,
Daraxtlar mo'ltirab turar yuzma-yuz.
Har bitta xazonni quchib, ardoqlab
Yerga qo'ymoqda-yu, qariyapti kuz.

Kuz donish va darvesh chol kabi mahzun...
E'tibor qilmasdan shovqin-suronga,
Xayol surish uchun topgancha mavzu,
Sharh yozib boryapti ulug' Qur'onga.

Tilovat vujudni tebratgan misol,
Dunyo qalqib turar qutlug' oyatdan.
O'limdan gapirsang seskangandek chol,
Kuz umid qilyapti hali hayotdan.

Ehtimol, qismatning imosi bilan
Og'rigan kunlari ko'paygan sari,
Yozilar Tangrining imlosi bilan
Keksa va umidvor kuzning she'rlari.

NOYABR

Mayda shoxlargacha bir-bir silkitib,
So‘nggi barglarni ham to‘kdi noyabr.
Hamma eshiklarni zichlab berkitib,
Tebranma kursiga cho‘kdi noyabr.

Likopchada bandi qoraygan uzum,
Chinni taqsimchada uch-to‘rtta konfet.
Ammo xayolini kesib o‘tdi zum
Qachondir stolga tashlangan konvert.

O‘qishga tutindi qo‘llari titrab,
Mo‘‘jazgina uyga xo‘rsiniq to‘ldi.
O‘tmishi xayoldan kechdi bir sidra —
Esladi yoshlikdan kelguvchi yo‘lni.

Unda asov edi, navqiron edi,
Qo‘lida shamolni qamchi qilgan — shu.
Qadamlari chaqmoq, shasht-suron edi,
Ulkan bulutlarni tomchi qilgan — shu.

Yil o‘tdi, yosh o‘tdi — qolmadi tadbir,
Endi uning hamma eshiklari berk.
Qaytadan kursiga cho‘kdi noyabr,
Ko‘ngliga sig‘madi hech qanday konvert.

HIKOYA

Men ayvonda kitob o‘qiyman,
Chorbog‘imda behi uzar kuz.
Meni yana (ko‘zlari qiymay)
Tashlab ketolmadi u, afsus.

Sabr qilar injiq eriga,
Zeriksa ham tishga bosar tish.
Tushunadi — ro‘zg‘or chirigan,
Ammo bilmas — mumkinmi ketish.

Ketsa, bir uy qulaydi tamom,
Kitob kabi yopilar bir qalb.
Balki shundan kun ko‘rar hamon
O‘zidan ham erini ayab...

Kuz hansirab chiqar chorbog‘dan,
Tokchalarga teradi behi.
Va o‘ylaydi — tugab bormoqda

Uni bir bor quchmagan eri.

Ammo ketmas ko‘zlari qiyib,
Garchi bitmas uyida tashvish.
Axir, ketsa eriga qiyin —
Endi kelsa kelar faqat qish.

ILOYO...

Sen meni o‘qiding ko‘ksimni yorib,
Men seni ayayman, (oshsin xunobing).
Iloyo, ko‘rmayin, yonsin va yonib
Kulday to‘zg‘ib ketsin o‘tmish kitobing.

Uzun umringdagi milyonlab qul va
Shohlarning yo‘lini chang bossin qalin.
Iloyo, eslamay, yiqilgan kulba
Qachonlardir menga aziz bo‘lganin.

Ehtimol, kelajak men uchun chalkash,
Balki, bilolmasman moziy mag‘zini.
Iloyo, bilmayin, ko‘zingdagi yosh
Men uchun to‘kilgan biror lahzani.

Shukr, muhim gapni anglatding o‘zing —
Anglamoq kelarkan sevgidan oldin.
Iloyo, unutmay ko‘ngilni uzib...
Qolgan muammoni xudoga soldim.

SUKUNATNI BUZDI...

Sukunatni buzdi charm etikning
Muzlagan yo‘lakka bosilgan zarbi.
Meni keldi deya shoshding, entikding...
Men esa bu vaqtda qarta o‘ynardim.

Tamom unutgandim seni, va’damni,
(Keyinroq esladim ming afsus bilan).
O‘sha kun qaqshatib bir uy odamni,
Tinmay yutar edim uchta tuz bilan.

Sen esa kutarding shom qorong‘usi —
Odamlar uyiga shoshgan paytda ham.
Qator simyog‘ochlar xira yog‘dusi
Ko‘chaning chiroyin ochgan paytda ham.

Qor esa yog‘ardi ulkan shaharga,
Sovuqni keltirib butun olamdan.
Men seni unutgan shunday mahalda
Sen meni izlarding hamma odamdan.

Tark etgan chog‘imda qimorxonani,
Oyog‘im bosardi mastona, chalkash.
Bugungi omaddan masrur bolani
Faqat qutlash kerak, kerakdir alqash.

Sukunatni buzdi charm etikning
Muzlagan yo‘lakka bosilgan zarbi:
“Ahmoq qiz, bunchalar kimga ko‘z tikding,
Yaxshisi, uyingga ketsang bo‘lardi”.

Qo‘lingdan yetaklab ildamladi u,
Yelkangga tashladi yomg‘irpo‘shini.
Qor esa yog‘ardi sen kabi suluv,
Yo‘lakka bosgancha oppoq to‘shini...

Ertasi qo‘zg‘atib og‘ir tanamni,
Senga raqam terdim qayta-qaytalab
Va birdan angladim yutqazganimni,
Yo‘lakka sochildi eski qartalar.

QORPARCHA

Tizzagacha qorga botdi bu uyim,
Hovliga tikildi sarg‘ayib darcham.
Bergan hasratlaring, dardlaring uyum,
Buncha qahring qattiq, aziz qorparcham.

Mitti vujudingdan qo‘rqaman bugun,
Hamma yo‘llarimni zarb bilan bosding.
Meni telbalardek sevganing uchun
Hatto sochlarimga o‘zingni osding.

Hayotim qorbo‘ron, ko‘zlarimda yax,
Mening hayotimni o‘ynagan qancha!
Bermasang bermagil, mayli, menga baxt,
Faqat o‘yin qilma sen ham, qorparcham.

HAYIT

Bu kun har mo‘minga zarrai e’zoz,
Bu kun qadr topdi kurrai zamin.

Ko‘ngilda aylanar surai ixlos,
Iloho omin, iloho omin.

Har bitta xonaqo, har bitta hujra...
Niyatlar jam bo‘ldi joynamoz uzra.
Bugun yig‘lash mumkin xayolni buzmay,
Iloho omin, iloho omin.

O‘yinqaroq, yalang-yupun bolalar,
Yuzida gardi yo‘q durkun bolalar,
Asli siz hammadan mo‘min, bolalar,
Iloho omin, iloho omin.

Iymon tanlamaydi gado deb, shoh deb —
Gina saqlamang, do‘st, eski bir dog‘ deb.
Qo‘limni uzatdim rahmatulloh deb,
Iloho omin, iloho omin.

KELDINGMI, KUZ!

— Keldingmi, Kuz! Qalpog‘ingni yech,
O‘rnashibroq o‘tir kursiga.
Toliqqansan, mana, qahva ich,
Xohlasang, ayt, qo‘yay musiqa.

Bu yerlarda qanchaga qolding?
— Uch oy.
— Nima?! Bor-yo‘g‘i shumi?
— Shoshma, xafa bo‘lishdan oldin,
Esla, nima degandi Rumiy.

Har yo‘qotmoq topmoqdan xabar,
Har topmoqlik mahrumlikday so‘z.
Ko‘rishdik-ku axir, birodar,
Mana bu — sen, mana bu men — Kuz.

— Bo‘ldi, do‘stim. Qilmayman gina,
Ne bo‘lsayam ko‘rishdik diydor.
Men dasturxon yozayin shinam,
O‘tgan yilgi musallasdan bor.

...Shunday qilib tonggacha quydim
Va aylandik sho‘x-sha’n bolaga.
So‘ng boshimni kitobga qo‘ydim,
Kuz kun chiqmay ketdi dalaga.

IMTIHON

Go‘dakning rizqidan xirmon uyar kim,
Kim esa tiriklik ko‘yida go‘dak.
Gadoni ermaklab lazzat tuyar kim,
Kimlar raqs tushib ko‘tarar etak.

Kim u yonarqurtdan munchoqlar yasab,
Yerdan undirganin yashirgan eldan.
Musofirxonada omonat yashab
Qaytishda namatni qo‘ltiqlab kelgan.

Yerda bir fan qoldi — ilmi xandasa,
Har kim yashash uchun kengroq joy o‘lchar.
Jig‘ildon bandasi, qorin bandasi
Hanuz kimligini qilolmas mo‘ljal.

Bu shunday taloto‘p, shunday ur-yiqit,
Kim zo‘r, kim xo‘rligin aytur zamon bu.
Bomdod namozini o‘qigan yigit
Shomgacha bemalol aynir zamon bu.

Nahotki, hayot shu — avval nafs berib,
So‘ng amal yozilar hatto go‘dakka.
Ehtimol, xudoyim shunday dars berib
Imtihon qilyapti yakkama-yakka...

BIR SAHAR UYG‘ONDIK...

Bir sahar uyg‘ondik ulkan qalb bilan,
Xuddi avliyolar kirgandek tushga.
Buyuk bir iqrorni aytdik zarb bilan,
Sabrimiz yetmadi kuzni kutishga.

Bizning quvonchlarga yo‘q edi tashbeh,
Boshimizga baxtlar yog‘di ustma-ust.
Hammani unutdik!
Bermasdan tanbeh,
Jimgina uyiga jo‘nadi avgust.

Kuz keldi. Etigin loyini qoqdi.
Xazonrez kunlarga ochdim quchog‘im.
Sening ko‘zlaringga bu rang ham yoqdi,
Sarg‘aydi dunyoning milyonta bog‘i.

So‘ng uch oy aldadi bizni bu fasl,
Uch oy boshimizda aylandi to‘zon.

Senga za’faron rang qilmadi ta’sir,
Menga ma’qul keldi bir dunyo xazon...

Bir sahar uyg‘ondik.
Hammayoq oppoq.
Lol qoldik — bu olam shuncha bo‘m-bo‘shmi!
Va birdan tushundik, qilmadik oh-voh,
Eslab o‘tirmadik hech qaysi tushni.

Bo‘yningni o‘rading oppoq sharf bilan,
Etigimni kiydim.
(Qayga shoshamiz!)
Tongni kutayapmiz bitta shart bilan
Ertaga abadiy xayrlashamiz.

YOLG‘IZLIK

Oqshomda uyiga kirdi yolg‘izlik,
Sovuq vujudida sovuq qaltiroq.
Devorning bir chetin bosdi. Holsiz. Tik.
Zulmatni ko‘chaga haydadi chiroq.

Divanning yarmiga o‘zin tashladi
(Divanning uyog‘i hamon bo‘sh. Yonar.)
Bir ayvon, qorong‘u zaldan tashqari,
Uni yutayapti qolgan uch xona.

Xuddi ulkan ko‘zdek baqrayar ko‘zgu,
Ko‘krak qafasini lang ochar shkaf.
Darparda o‘rmalab keladi ezgin
Hayhotday xonada sezyotganday xavf.

Yostiq yosh boladek kirar pinjiga,
Naq boshiga kelib termilar chiroq.
Nahot dunyo birdan shuncha tinchigan,
Nahot unga hech kim qilmas qo‘ng‘iroq.

Chorasiz ko‘z yumar — uxlar yolg‘izlik
Onasi qavigan ko‘rpa yopinib.
Tush ko‘rar. Tushida yurganmish tirik
Allaqayoqlarga ketgan xotini.

SHARPA VA DARPARDA

Ostonadan hatlar xo‘rsiniq bilan
Ishdan kech va horib qaytyotgan sharpa.

Yugurgilab-shoshib uyning to‘ridan
Eshikkacha peshvoz chiqar darparda.

— Yaxshi keldingizmi?
— Yaxshi, hartugul.
Va uzatar sharpa eski portfelni.
Darparda jilmayar, jilmayar nuqul,
Axir ishdan uning sharpasi keldi.

Mo‘‘jaz xontaxtaning ikki yonida
Qahva ichar sharpa bilan darparda.
Bir-birini suyib joni-jonidan
Shunday baxtli yashar ulkan shaharda...

Yarim tun soat zang urar — o‘n ikki,
Eslatadi tag‘in yashash shartini.
Ular taqdirga noiloj ko‘nikkan —
Balki shudir baxtli bo‘lish tartibi.

Ming yildirki, nolimaydi bir marta,
Ming yildirki, hayot ketmas buzilib.
Duch kelgan burchakka cho‘zilar sharpa,
Parda derazaga osar o‘zini.

Tongda yana tirilar ikki qismat.

* * *

Sening boshing quyosh,
Sening boshing nur.
Sen mudom ufq tomon
Intiq choparsan.
Iloyo, shu qutlug‘
Yo‘lda o‘l, shoir,
Ehtimol, o‘lganda
Qadr toparsan.

* * *

Ko‘zlarimni, tilimni
Burdilar chappasiga,
Yurak ham to‘ntarilgan
Eski qumsoat go‘yo.
Bu ters olam ichida
Bardosh yo‘q hammasiga —
Ko‘lmak suvda teskari
O‘sib bormoqda dunyo.

TILAK

Do‘stim Nozimjonga

Yelkang kengib borar, ko‘zing ravshan tortib,
Yil degani o‘tib borar shitob bilan.
Yoshlik esa sendan ortib, mendan ortib,
Ortimizda qolayapti xitob bilan.

Kecha bizlar bola edik g‘o‘r, soddadil,
Bugun esa so‘zlar tetik, bo‘ylar adl.
Qadam olishimiz hatto sherdan dadil,
Yigitlikka o‘tdik ko‘hna hisob bilan.

Mittigina uchqun tashlab jon-joningga,
Ishq chirmashar sochingdan to tovoningga,
Xudoyimdan o‘rgil, to‘rtta tomoningga
Qo‘rg‘on qildi chimildig‘u mehrob bilan.

Ammo taqdir azobingni shu tarz bersa,
Tinglamaskan keyin unga kim arz bersa,
Sen o‘qisang o‘qiysanki, u dars bersa,
Taqdirga dars berib bo‘lmas kitob bilan.

Mayli, bu gap ko‘nglimizni qilmasin g‘ash,
Eryigitga yarashmaydi qaytish, to‘xtash,
Qizing bo‘lsa ko‘zi xuddi senga o‘xshash,
Hayot shirin — tan olganda insof bilan.

Ko‘ksimizda zavq-ishtiyoq o‘t olganda,
Vaqti kelib bir manzilga yetolganda,
Biz tik turib qadahlarni ko‘targanda,
O‘g‘ling ko‘zin yumib tursin odob bilan.

XIYONAT

Har kungiday qozon boshida
kuymalanib yurgan bir taqdir
qo‘llarini artdi-yu kelib
oq ko‘ylakka bo‘yinbog‘ taqdi.

Ko‘ylak yo‘lga tushdi hilpirab —
ishga borish kerak vaqtida,
avtobusdan tushgunicha to
o‘ylab ketdi taqdir haqida.

Har kungiday qozon boshida
vaqtni zo‘rg‘a o‘tkazgan taqdir
qo‘llarini artdi-yu kelib
tush payti kimgadir sim qoqdi...

Va shu bilan hikoya tamom,
o‘sha kuni — yetmasdan shomga
oq ko‘ylakning yoqasidagi
tugmalari to‘kildi polga.

IQROR

Taqvimni devordan yulib otaman,
Agar o‘tgan bo‘lsa bir kunim dardsiz.
Balki butun umrim bilan xatoman,
Ammo men hech kimman xotiralarsiz.

Gul dedim, bu hayot bir chaman berdi,
Gullar suvdek oqdi anhorlarimda.
Menda o‘ylash uchun fursat bor edi
Qayta-qayta kelgan bahorlarimda.

Biroq hayotimdan yasadim o‘yin,
Guldek xazon qildim har o‘tgan kunni.
Endi yechmoq qiyin, unutmoq qiyin
Yuragimda qolgan eski tugunni.

Bugun shivirlayman o‘zimga sekin:
Mayli, kelgusim ham o‘tmasin dardsiz.
Ehtimol, baxtiyor bo‘larman, lekin
Men kim ham bo‘lardim xotiralarsiz.

QISHKI XAT

Dard va hijron olib kelgan og‘riqdan
Tola sezgimgacha o‘t bo‘lib yondi.
Tushun, lahzamgacha senga bog‘liqman —
Men qayga sig‘diray shuncha tug‘yonni!

Fevral — qahratonning so‘nggi sahnasi,
Bunda nish uradi hislar qadimiy.
Qayta uyg‘onarmi qo‘llaring raqsi,
Qo‘llaring uxlashdan zerikmadimi?

Qancha umrim kechdi benom, benishon,
Axir uchta fasl o‘tdi oradan.

Qo‘llaringni uzat, gapimga ishon,
Men seni ko‘klamga olib boraman.

KUZGI BOG‘

Shamol olib kelar uyimga
ufqdagi sariq bog‘larni,
so‘ng erinmay har bitta shoxni
ustunlarga bir-bir bog‘laydi.

Xuddi mo‘min bolalar kabi
odob saqlar bir hovli daraxt,
ammo hali zamon ularning
oyog‘idan o‘ta boshlar zax.

KETISH

Ezgin kuylar topdi nihoya —
G‘ilofiga solib torini,
Kuz tartibga qilib rioya
Orqaladi jomadonini.

Yo‘lga tushdi o‘ychan, xotirjam,
Izlaridan sudraldi shamol.
Toliqqani yo‘qdir hozircha,
Ammo olis u ketgan tomon.

Balki kimdir shu olis joyda
Eslamoqda uning nomini.
Xavotirman, kuz qachon, qayda
Yerga qo‘yar jomadonini.

AVTOPORTRET

Kimdir salom dedi eshigim ochib,
Band edim — kitobdan ko‘tarmadim bosh.
Menga ma’qul edi taqdirdan qochib,
Shu xilvat xonada darveshdek yashash.

Sezdim, qimtingancha o‘ziga surib,
Omonat o‘tirdi eski stulga
Va hamma ayollar kabi ish ko‘rib,
Birrov razm soldi yupun ustimga.

So‘ng nigohi ko‘chdi devorimdagi

Bo‘yog‘i uniqqan ko‘hna suratga.
Uni hayron qildi bir enlik changi,
Mening loqaydligim soldi hayratga.

Sezdim, taqdirimning o‘zi edi u,
Shu g‘arib xonaga yuborilgan baxt.
Men qancha tunlarda bilmasdan uyqu
Kitoblar ichidan topgan buyuk dard.

Ammo, ming afsuski, hatto bir lahza
Unga boqmoq uchun qizg‘andim vaqtdan.
Ayni shu payt qalbga solgancha larza
Remark janoblari oshardi haddan.

Ayni shu lahzada yig‘ladi Robbi,
Patritsia o‘ldi...
Men dilgir edim.
Kimdir xayr dedi, eshigim yopdi,
Uning yuzlariga qaray olmadim.

AFSUS

Toliqdim,
bag‘rimdan shamoling o‘tsin,
jismim to‘zg‘ib ketsin,
endi arzimas.
Menga desa, bari qolmaymi o‘ksib,
yashash — bu mening qarzimmas.

Xayol potrab ketar
chiroqnur kabi,
devorga urilib sinar nigohim.
Azoblar — o‘zimning kutgan talabim,
o‘zimga yoqadi gunohim.

Afsusim —
og‘rigan joyim jonimdir,
sen haqda o‘ylashga hamon qodirman.
Kimga tashlab ketsam ekan yodimni,
qanday kechsam ekan
xotirdan.

HIJRONNING HAR KUNI...

Hijronning har kuni qonga yuqarkan,
Alvon rangga kirdi o‘n ikki oyim.

Mening o‘tmishimni yo‘qqa chiqargan
Taqvimga la’natlar bo‘lsin, iloyim!

Kuzning xazonini ko‘rmadik birga,
Yelkamni qor bossa, o‘zim qoqindim.
Xudo azob qilib har kuni bergan
O‘ar gulning hidida seni sog‘indim.

Nihoyat ko‘z yumdi eng so‘nggi uchqun,
Umidlar tirilmas xato haqqiga.
Vaqtidan kechikkan to‘g‘ri so‘z uchun
Qasam ichmay qo‘ydim xudo haqqiga.

Yolg‘iz bormoqdaman oppoq tumanda
Kaftim orqasiga ko‘zyoshim artib.
Eslash, sog‘inishdan bezgan zamonda
Mening o‘tmishimni kim tushunardi...

SARXUSHLIK

Bu hayot ko‘rina boshlar ko‘zimga
Fohisha umriday bemazmun, chirkin.
Kim parda tortmoqda bugun yuzimga,
Kimga ko‘p ko‘rindi bir hovuch erkim?

Arava izidan ketgan musofir,
Bu yo‘l — haqiqatdan boshlangan ertak.
Bu yo‘l osmonlarga tutashar oxir,
Bu yo‘lning so‘ngida qanotlar kerak!

Men haqda so‘z aytgan og‘izlar, tining,
O‘tinay, so‘zimni qilmangiz talon!
Haromga burkangan yo‘rig‘im mening,
Ammo men borajak manzillar halol.

Billur idishlarda qizil may — hayot,
O, hayot! Sen — yozgan bir she’rimga teng...
Maydagi aksimda ko‘tarsam faryod,
Tegmang, piyolaga cho‘kib o‘lsam men.

Yuzimga tortibroq qo‘ying pardani,
Menga ko‘plik qildi bir hovuch erkim.
Lek qo‘rqib ketaman, so‘roq qilgani
Chaqirganda Xudo, menga ne derkin?!

DIYDOR

Quyoshni aylanib yil o‘tkazdik biz,
Yerni aylantirib o‘tkazdik kunni.
Qanday xushxabar bor bizlarga, Navro‘z,
Bobomni jannatda ko‘rganing chinmi?!

Oppoq hovur purkab keldi bir tulpor,
Keldi-yu depsinib yerni uyg‘otdi.
Sening yuragingda nima gap, bahor,
Senga yetolmasdan yana kim o‘tdi?!

Qahraton qadami shunchalar mayda,
Yiqilgan ko‘p bo‘ldi, tolgan ko‘p bo‘ldi.
Menga dardingni yor, titragan maysa,
Qaysi bir mozorga borgan ko‘p bo‘ldi?

Barin bila turib so‘rash telbalik,
Bo‘lak nimaniyam aytayin, ko‘klam.
Aslida, ko‘nglimda boshqa bir hadik —
Hali xushxabarlar bormikan ko‘kdan?

HAR QANCHA O‘YLAMAY...

Har qancha o‘ylamay, unutmoqdaman
Siz bilan bog‘langan xotiralarni.
Dunyoning yarmisi ketar siz tomon,
Men bilan qolmoqda qolgan teng yarmi.

Yig‘lasang, ko‘zlaring tozarar ekan,
Ko‘zimda qolmadi na mung, na anduh.
Shukr, menga faqat sizdan dard tekkan,
Shukrki, o‘sha dard ayagani yo‘q.

Vaqtida to‘kilmay qolgan yaproqday
Tangrining hukmiga keltirdim kufr.
Xuddi sizda mening haqqim ko‘proqday
Yashabman, shu o‘tgan umrimga uzr.

Yolg‘izlik — muhabbat yetgan cho‘qqidir,
Buni shoirlardek qilmasman talqin.
...Va eng zo‘r she’rimni bugun o‘qidim...
Men yolg‘iz yashashga ko‘nikdim balkim.

SANDIQDAGI SHE’R

Bu odamning peshonasi sho‘r,

Bu odamning ko‘zi doim nam.
Sho‘r ko‘zyoshlar haqda mendan so‘r,
Sen qaerdan bilarding, bolam.

Nari borsa, ichgan qultum may,
Ba’zan-ba’zan dili o‘rtanib.
Kitobidan boshin ko‘tarmay,
Bilmay qoldi umrin o‘tganin.

Bora-bora kichraydi jussa,
Keng to‘nini yechib tashladi.
Bu dunyoni, esiga tushsa,
Ko‘zoynakdan ko‘ra boshladi.

Ochiq-oshkor, ayon bildirib,
Yeseninga kelib hasadi.
Bir umr bir joyda o‘ltirib
Faqat qog‘ozgullar yasadi.

Hali hayot berganida dars,
Hammasini anglaysan, bolam.
Faqat hozir bilmay tursang bas,
O‘sha menman — bechora odam.

MASOFA

— Salom.
— Salom!
Tugaydi suhbat.
Yana bir kun o‘tar ship-shiydam.
Men ertani kutaman diqqat
Va shoshilib kelaman uydan.

Siz kelasiz (turibman anglab)
To‘ymagansiz hali uyquga.
So‘ng kirasiz eshikni hatlab,
Tashqarida qolar tuyg‘ular.

Paltongizni yechasiz sipo,
Gullarga suv quyasiz jiddiy.
Sukunatda yashash doimo
Nahot oddiy, shunchalar oddiy.

— Salom.
— Salom!
Jo‘ngina suhbat.
Umrim o‘tib borar ship-shiydam.

Tag‘in qancha kutaman fursat,
Tag‘in qancha quriydi diydam.

Siz taqdirdan cho‘chiysiz balki,
Ko‘zlaringiz hamon hadikda.
Nastarinlar gullasa hamki
O‘tolmaysiz salom-alikdan.

BAHOR ESHIK QOQOLMAYDI...

Bahor eshik qoqolmaydi, jim —
Ostonamda turar boladay.
Uyda esa bir issiq kiyim
Atay chiqib ketmas xonadan.

Qo‘llarimga chirmashadi sharf,
Qunduz yoqa suykalar yuzga
Va der — meni sevishingiz shart,
Tupurdim shu bahoringizga.

Oh, ayozning ovozi o‘ktam,
Ul ayozki, mening zo‘r xatom.
To‘rt devorning naryog‘i ko‘klam,
Faqat uyim to‘la qahraton.

...Bahor kirar, mo‘ltiraydi jim,
Aldangandek xuddi boladay.
Axir! Axir... bir issiq kiyim
Menga joy solyapti xonada.

POYEZD KELDI...

Poezd keldi vaqtdan kechikmay,
Besh daqiqa — xayr-xo‘shlashga.
Taqdir hali vagonga chiqmay,
Yig‘lardi perronga ko‘z tashlab.

Pastda esa qo‘l silkir hamma,
Har kim har darchaga tikkan ko‘z.
Taqdir ro‘mol silkigan damda
Odamlardan uzoqlashdi Kuz.

Keyin vokzal bir zumda to‘zdi,
Uy-uyiga shoshdi olomon.
Temir izlar ulkan poezdni
Olib ketdi kunbotar tomon.

Yo‘l shu — kim yo‘qotdi, kim topdi,
Yo‘lda yana nelar berdi yuz...
Taqdir ham ochdi bir kitobni
Va yodidan ko‘tarildi Kuz.

Hayot esa ketdi o‘zgarib,
Yangi kunlar bo‘ldi ixtiro.
Faqat o‘sha Kuz — endi qarib,
Kuchdan qolgan bo‘lsa ham, biroq

Har kun qayta vokzalni kezdi,
Har tun yozdi faqat bir xil xat:
“Endi qachon qaytar poezding,
Yana qachon kelishingni ayt?”

YO‘L

Shoir va adib Jahongir Ismoilovga

Qay tomonga bo‘lsin — yo‘l yurmoq azob,
Kifting eziladi, uvishar oyoq.
Ammo qachonlardir bitilgan kitob
Ichra bizning qismat ataldi sayyoh.

Sayyohki, ehtimol ibtido xalqi —
Odam Ato qo‘ygan qadamdan boshlab,
Gohi shiddat bilan, gohida qalqib,
Hamon yurmoqdamiz safni almashlab.

Bu safar, aslida, jiddiy sayohat —
Hali ko‘rilmagan kunlarga sayr.
Faqat bu yo‘llarda kerakdir toqat,
Ketmasa bo‘lgani shashtlar pasayib.

O‘ziga yo‘l ochar nechun jilg‘alar,
Nimaga ishora Somon yo‘llari?
Hatto qushlar o‘zi ilg‘ab-ilg‘amay,
Umrlik safarga mahkumdir bari.

Voajab, bu yo‘llar bunchalar tig‘iz,
Bunda kimlar hordi, kimlar chidadi.
Istaymizmi-yo‘qmi, biz ham yo‘lchimiz,
Biz ham shu safarning davomchilari.

Yurish qanday yaxshi eldan qo‘l uzmay,
Manglayda yurt bo‘lsa, ko‘ngilda iymon.

Axir dahshatmasmi, bu yo‘llar uzra
Shundoq o‘tib ketmoq benom, benishon.

Ko‘ngildan ko‘ngilga yo‘l topmoq — boylik,
Baxt — senga yo‘l kelsa birorta dildan.
Muhimi, adashmay, tolmay boraylik
Xudoning yo‘lidan, Yurtning yo‘lidan.

MANZARA

Xabar tashiy boshlar chopqir shamollar,
Bog‘lardan bog‘larga uchar sariq xat —
Za’faron barglarda kuzgi salomlar,
Za’faron barglarda kuzgi muhabbat.

Ko‘chalardan o‘tar minglab maktublar,
Ular har odamdan so‘raydi ahvol.
Ammo bu xatlarni bir joyga to‘plab,
Asta yoqa boshlar bir farrosh ayol.

UCH OHANG

Dunyoning u cheti titrasa nogoh,
Bu chetda turganlar yurak hovuchlar.
Soniyalar ichra oshib toshu tog‘,
Quloqqa yetadi borki tovushlar.

Dengizlar shovullar — kuylar betinim,
Shamol ungurlardan beradi ovoz.
Hatto chumolining shitir-shitirin
Ba’zan shuurimiz ilg‘aydi bexos.

Qadam tovushlari — tiriklik kuyi,
Kiprik qoqishdan ham chiqqay bir navo.
Jamlasak, osmonni ketardi o‘yib
Salom va alikdan yig‘ilgan sado.

Ammo uch ohang bor — hayotdan darak,
Shu uch kuydan dunyo yaralgay yangi.
Chaqaloq yig‘isi, shunga mushtarak
Ona allasi va Yangi yil bongi.

HIJRON KECHASI

Stulga o‘tirdi bir og‘ir soya,

Tamaki buyurdi va achchiq qahva.
Uning oyog‘iga tiz cho‘kdi royal,
Mahzun kuy boshladi muhabbat haqda:

“Armonu hijronlar kelsa ustma-ust,
Azobu iztirob tursa yonma-yon.
Hukm qil, bir bora bo‘lay yuzma-yuz,
Meni o‘tmish bilan bog‘la, xudojon!”

Bellarini mahkam bog‘lab pardalar,
Mohir raqqosaday etdilar xirom.
Bir nuqtaga boqib qotdi lampalar,
Ko‘rsatib mashshoqqa chuqur ehtirom.

Keyin yorishdi tong — tugadi kontsert,
Notalar daftarin otdi bir chetga.
So‘nggi umidlari uzildi chirt-chirt,
Ehtiyoj qolmadi boshqa kontsertga...

IZDOSH

O‘g‘lim Shohidbekka

Vazmin sudraladi tomirimda qon,
Erinchoq bulutdek ko‘char har bir ish.
Kun sayin sochimni bo‘yamoqda qor,
Kun sayin boshimni bosib kelar qish.

Ammo bir taskin bor, tasalli shuki —
Mening umrim uchun bergancha baho
Va pisand etmasdan hayotning yukin,
Ortimda ulg‘ayib kelmoqda bahor.

QOR

Shu qadar qor yog‘di, shu qadar yog‘di,
Ajratib bo‘lmasdi tosh va giyohni.

Baland-past uylarda teng bo‘ldi maqom,
Axir hammasida bir xil oppoq tom.

Odamlar bir tusda — palto va etik,
Ajab, qor yoqquncha turfa rang edik.

Kimning qo‘li uzun, kimniki qisqa,
Ko‘rinmay turibdi qo‘lqopimizda.

Yo‘l shunday yaxmalak — yo‘rtib bo‘lmaydi,
Hovliqib oldinga o‘tib bo‘lmaydi.

Hamma bir-birining yengidan tutgan,
Go‘yo ginalarni butkul unutgan.

Shu qadar qor yog‘di, shu qadar yog‘di,
Ajratib bo‘lmadi bemoru sog‘ni.

MENING BAHORIM

Eshiklardan bir-bir tushmoqda ilgak,
Anhordek jimirlab oqmoqda yo‘llar.
Hamma bir tomonga ko‘z tikkan ilhaq,
Bahor shu tarafdan kelarmish gullab.

Uyda esa, nigoh solib oq shiftga,
Bitta jajji nihol yozadi kurtak —
U faqat bahorning nomin eshitgan,
U hali bahorni ko‘rmagan go‘dak.

DENGIZ

Ehtimol to‘fondir, toshqindir balki —
Bexos dengiz bosib kirdi xonamga.
Qog‘ozu qalamlar suv uzra qalqdi,
Men ham ulgurmadim tashlashga langar.

Qop-qora suv bo‘ldi to‘rtta tomonim,
Devorlar sho‘ng‘idi mavjlar tubiga.
Men esa, ko‘zimga ko‘rinmay jonim,
Dengizga mahliyo bo‘lgandim bu gal.

Naq o‘lim qoshida turardim, baski,
Hayotimni bosib kelardi xatar.
Ammo yuragimda bor edi taskin:
Axir xonam katta emas u qadar.

Elas-elas ko‘rdim chehrangni shunda,
Shovqinlar ostida nimadir deding.
Bir bahya qolganda g‘arq bo‘lishimga,
Dengizni turmaklab uyga jo‘nading.

ME’YOR

Tortibroq bog‘lasam odatdagidan,
Sirtmoqqa aylanib qolar bo‘yinbog‘.
Hatto me’yor saqlab choyning rangida
Ichmasam, tusharmish jigarimga dog‘.

Qara, har narsada o‘lchov bor shaksiz,
Haddidan oshmaydi hayot degani.
Ammo nega sening qiynog‘ing cheksiz,
Nega me’yor bilmay sevaman seni.

JO‘NATILMAGAN MAKTUBLAR

1.
Men o‘zim kuzatdim
Qo‘lidan tutib,
Meni ardoqlovchi
Odamlar ketdi.
Hamma gunohimni
Mutloq unutib,
Aybimni oqlovchi
Odamlar ketdi.

O‘tmishim haddimdan
Sal tashqarida,
Bilmayman kimlarni
Eslashni tag‘in.
Chiroyli qizlarning
Yig‘lashlaridan
Bo‘lak xotira yo‘q
Ko‘nglimga yaqin.

O‘jar, qaysar edim
Va biroz shoir,
Tan olmay yashadim
Hayot shartini.
Tushunsam, bir tomon
Aylanarkan yer,
Boshqacharoq ekan
Yashash tartibi.

Takror so‘z o‘zimning
Jonimga tegar,
Endi kim gapimga
Quloq soladi.
“Har kim o‘zi uchun

O‘zi javobgar” —
Shu bo‘ldi umrimning
Xulosalari.

Men o‘zim kuzatdim
Qo‘lidan tutib,
Meni ardoqlovchi
Odamlar ketdi.
Boshqa bag‘irda ham
Bir meni kutib,
Bir meni xohlovchi
Odamlar ketdi.

Sunbula. Olmalar
Taranglashgan kez,
Qovunlar hidiga
To‘lganda hovlim.
O‘zim bilan o‘zim
Dardlashib yolg‘iz,
Bunday siqilishni
Sira kutmovdim.

Kuzning salqinini
Sog‘ingan ko‘yi
Yotaman.
Yonimdan o‘ksib olislar —
Qo‘lida men bexos
Jon berib qo‘yib,
Niyatga yetmagan
Chiroyli qizlar.

2.
Yosh edim, g‘o‘r edim,
Ehtimol yoshim
O‘n yetti-o‘n sakkiz
Oralamagan.
Hali aylanmagan
Sevgidan boshim,
Qo‘lim hali bir she’r
Qoralamagan.

O‘shanda rayhonni
Atardim rayhon,
O‘shanda qizg‘aldoq
Qizg‘aldoq edi.
Bir qiz hayotimga
Kirdi nogahon,
Bilmadim, u kezlar

Qiz qandoq edi.

O‘sha qiz qop-qora
Sochlarin yozib,
Mening vujudimni
Chirmadi birdan.
Shunda butun borliq
Aqldan ozib,
Bir xil ovoz keldi
Osmonu yerdan.

«Sizni bilmadim, men
Sizni sevaman!»
Shuncha bo‘larmi bir
So‘zning qudrati?!
Bir o‘lib-tirildim
Bu iqrordan man
Muhabbat haqqi-yu
Ko‘ngil hurmati.

Keyin kunlar kechdi
Rangsiz, fayzi yo‘q.
Tunimda lipillar
Xira shamchiroq.
Qiz ketdi (to‘g‘ri-da,
Mendan qarzi yo‘q.
Qaytanga qarz berdi
Bo‘sa va titroq).
Qariyb o‘n yil o‘tdi
Bir kun dardida —
Iltifot ko‘rsatgan
Qizning kuni u.
Aytsam, ming to‘qqiz yuz
To‘qson oltida
Xazonlarga to‘lgan
Kuzning kuni u.

Endi xumor qilar
May bilan birga
Shamolda o‘ynagan
Sochlarning bo‘yi.
Soqollari o‘sgan
G‘arib shoirga
Og‘irlik qilyapti
Xotira kuyi.

Titib o‘ltiraman
Kundaligimni,

Ehtimol, u kunlar
Menga dars edi.
O‘shanda bo‘lardi
Sevsam ham kimni,
O‘shanda muhabbat
Muqaddas edi.

Bir pul bo‘lganida
Endi hammasi,
O‘zimcha muhabbat
Haqida yozdim.
Ammo adashibman,
Bilsam, chamasi,
Axir men o‘n yilni
Bekor o‘tkazdim.

3.
Tavqi la’nat bilan,
Qarg‘ishlar bilan
She’r yozib dilingiz
Og‘ritgan menman.
Jabrdiyda, yuzi
Sarg‘ishlar bilgan
Yuzlarga tortilgan
So‘nggi ominman.

Feruza ko‘zlardan
Qaramang menga,
Bilaman, sizdagi
Hayot bokira.
Men qaysar odamman,
Shoir ko‘nglimga
Yolg‘izlik yoqadi
Sizdan ham ko‘ra.

Men sizni sevaman,
Sevganim shuncha —
Bir kunda bir marta
Salomu alik.
Biroq tug‘ilgandan
O‘la-o‘lguncha
Sizni sevolmayman
Bitta so‘zchalik.

Astoydil e’tibor
Bermay baxtimga,
Yo‘limda yaratdim
Shuncha iztirob.

Sizni quchish uchun
Ketgan vaqtimga
Yozsam tugar edi
Yostiqday kitob.

Yigirma yil ziyod
Yashadim shodon,
Odamlar ulashgan
Harorat bilan.
Bundan buyog‘iga
Shodlik dargumon
Bitta qiz qoldirgan
Haqorat bilan.
Men sizni sevaman,
Ichimda aytib
Yurgan she’rlarimdan
Ko‘p bo‘lmasa ham.
O‘sha shoirlikdan
Bir zumga qaytib,
Sevib turish kerak
Ba’zida odam.

Yozuv stolimga
Ko‘zyosh to‘kilar,
Bugun irodasi
Sal ojizdekman.
Meni ko‘rib qoling,
Keyin kech bo‘lar
Mashhur bo‘lib ketsam
Chorasizlikdan.

Men sizni sevaman,
Sevganim shuncha...